



TO'QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISH TIZIMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING TASNIFIY BELGILARI

O'rinov Akmaljon

Farg'ona davlat universiteti
ORCID: 0009-0008-2940-8428
urinov_aa@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflash va tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada to'qimachilik sanoatidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifatini yaxshilash va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqaruv tizimining muhim jihatlari ko'rib chiqiladi. Muammoning yechimi sifatida ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi, shu jumladan, resurslar, innovatsion faoliyat, strategik dasturlar va boshqaruv tizimining ahamiyati, shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur bo'lgan texnologiyalar va xodimlar salohiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik korxonalari, raqobatbardoshlik, boshqaruv tizimi, ichki va tashqi omillar, texnologiyalar, xodimlar salohiyati, raqobat, iste'mol talabi, boshqaruv samaradorligi, mahsulot sifatini oshirish, yangi texnologiyalar.

КЛАССИФИКАЦИОННЫЕ ПРИЗНАКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА СИСТЕМУ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Уринов Акмалжон

Ферганский государственный университет

Аннотация. Данная статья посвящена классификации и анализу факторов, влияющих на систему управления конкурентоспособностью текстильных предприятий. В статье рассматриваются ключевые аспекты управленческой системы, необходимые для повышения качества продукции, производимой предприятиями текстильной промышленности, и обеспечения её конкурентоспособности. В качестве решения проблемы анализируются внутренние и внешние факторы, включая ресурсы, инновационную деятельность, стратегические программы и значимость системы управления, а также технологии и кадровый потенциал, необходимые для повышения конкурентоспособности.

Ключевые слова: текстильные предприятия, конкурентоспособность, система управления, внутренние и внешние факторы, технологии, кадровый потенциал, конкуренция, потребительский спрос, эффективность управления, повышение качества продукции, новые технологии.

CLASSIFICATION CHARACTERISTICS OF FACTORS AFFECTING THE COMPETITIVENESS MANAGEMENT SYSTEM OF TEXTILE ENTERPRISES

Urinov Akmaljon
Fergana State University

Abstract. *This article is dedicated to the classification and analysis of factors influencing the management system of competitiveness in textile enterprises. It examines the key aspects of the management system necessary to improve the quality of products manufactured by enterprises in the textile industry and to ensure their competitiveness. As a solution to the issue, both internal and external factors are analyzed, including resources, innovation activities, strategic programs, and the significance of the management system, as well as the technologies and human resources required to enhance competitiveness.*

Keywords: *textile enterprises, competitiveness, management system, internal and external factors, technologies, human resources potential, competition, consumer demand, management efficiency, product quality improvement, new technologies.*

Kirish.

Bugungi kunda to'qimachilik korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash ishlab chiqarish korxonalarining asosiy funksiyalaridir. Ma'lumki, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan to'qimachilik korxonalarining asosiy qismi ishlov berishga tayyorlangan materiallarni ishlab chiqarishadi va eksport qilishadi. Demak, mahsulotlar yarim tayyor mahsulot sifatida tayyorlanmoqda, shuningdek, ba'zi viloyatlardagi to'qimachilik korxonalari tomonidan yarim tayyor mahsulotga to'liq ishlov berish natijasida tayyor mahsulotlar ham ishlab chiqarilmoqda. Ammo, tayyorlangan mahsulotlar rangini tez o'zgarishi, matoning xolatini yo'qotishi, cho'zilishi va uzoq muddat xizmat ko'rsatmasligi kabi nuqsonlar bilan ishlab chiqarilayotganligi barchamizga ayondir. Bu borada to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligi bilan bog'liq quyidagi muammolarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiluvchi aniq bir tizimli boshqaruv yo'lga qo'yilmaganligi xalqaro raqobatda zaiflikka olib kelmoqda.

Ikkinchidan, to'qimachilik korxonalarini boshqarishda zamonaviy prinsiplardan foydalanilmaslik, boshqaruv tizimidagi eskicha yondashuv ishlab chiqarish samaradorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Uchinchidan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar milliy bozorlarni qamrab ololmayotganligi va hatto milliy bozorlarning to'qimachilik mahsulotlari bilan to'yinmaganligi bu sohada nuqsonlar mavjudligidan dalolat bermqda.

To'rtinchidan, jahon bozorida milliy mahsulotlarning sotuv narxini pastligi mahsulot sifat darajasini oshirishga e'tibor qaratish zarurligiga olib kelmoqda.

Beshinchidan, boshqaruv tizimida mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan aniq tadbirlar ishlab chiqilmayotganligi, rahbar-kadrlarni sifat boshqaruvi bo'yicha ko'nikma va tajribalarini yetishmasligi sohada ko'plab muammolarni yig'ilib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Oldinchidan, to'qimachilik korxonalari ta'sischilarining tez va qisqa muddatli foyda olish maqsadlari korxonaga qo'shimcha mablag' sarf etib ularni rivojlantirishga e'tibor qaratilmayotganligi yana bir jiddiy muammolardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan boshqaruv tizimidagi muammolar yechimini topish, to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash, butun jahon bozorlarida o'z o'rniga ega bo'lish eng dolzarb masala hisoblanadi. Shuningdek, asosiy maqsad – raqobatbardoshlikka ta'sir ko'rsatadigan muhim omillarni aniqlash va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni boshqarish tizimini ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar sharhi.

To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashda bir necha muhim tadqiqotlar va fikrlar mavjud. Ushbu tadqiqotlarda asosiy e'tibor mahsulotning sifatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yuqorilash va marketing strategiyalariga qaratilgan. Insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omilini ham muhim elementlardan biri sifatida olib qarash mumkin.

Li (2007) va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, raqobatbardoshlikni oshirish uchun to'qimachilik korxonalari doimo o'z ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishi kerak. Buning uchun ular texnologik innovatsiyalardan foydalanishlari, mahsulotlarining sifatini muntazam yangilashlari va ekologik talablarga moslashishlari zarur. Li ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan omillarni ekologik va iqtisodiy jihatdan ikki tomonlama baholagan.

Robertsonning tadqiqotlariga ko'ra, to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligi marketing strategiyalari, brending va mijozlar bilan munosabatlarning yaxshilanishiga bog'liq. Uning fikricha, brendlashtirish va mijozlar bilan to'g'ri aloqalar, ayniqsa, global bozorda yordam beradi. Robertson buni tadqiq qilish uchun bir qator ishlab chiqarish kompaniyalarining marketing tizimlarini tahlil qilgan.

Petri (2015) o'z tadqiqotlarida ishlab chiqarish resurslari va ularni boshqarishning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotga ko'ra, ishlab chiqarish resurslari, xom ashyo va ishchi kuchlarning samarali boshqarilishi to'qimachilik korxonalari uchun raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Petri, shuningdek, resurslarning samarali taqsimlanishi korxonaning barqaror rivojlanishini va bo'lgan imkoniyatlarning kengaytirishini ta'minlaydi, bu esa bozordagi raqobatga qarshi turish imkonini beradi.

Smit va Jonson, (2018) to'qimachilik sanoatidagi ekologik va ijtimoiy omillarni o'rganib, ushbu sohadagi korxonalarning ekologik mas'uliyatga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Ular aytishlaricha, global ekologik standartlar va iste'molchilarning ekologik ahamiyatga ega mahsulotlarga bo'lgan talabini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish strategiyalarini yangilash muhim ahamiyatga ega. Eko-dizayn va barqarorlikga yo'naltirilgan ishlab chiqarish usullari to'qimachilik korxonalariga raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sanoat boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirish usullarini o'rganish va tahlil qilishdir. Tadqiqotda qo'llanilgan metodologiya, asosan, sistemali yondashuv, statistik tahlil qiyosiy tahlil, omilli tahlil, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bozor munosabatlari jadal rivojlanayotgan zamonaviy sharoitda raqobatning shakllari tobora kuchayib bormoqda. Bozorlarda yo'qotilgan raqobat afzalliklari va pozitsiyalarini faqat muhim moliyaviy hamda intellektual resurslarni jalb qilish yo'li bilan qayta tiklash mumkin. Raqobatning rivojlanishi ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar raqobatbardoshligini ortishi bilan birga amalga oshiriladi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan asosiy omillar sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

Resurslarning mavjudligi. Mamlakatdagi ishlab chiqarish korxonalarini turli xil mavjud resurslar bilan ta'minlash orqali jahon bozorida raqobatchi korxonalarga nisbatan yuqori sifatli va arzon turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mamlakatda yetishtirilayotgan paxta resursi to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligini oshishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsion faoliyat. Mamlakatda ilmiy tadqiqot ishlarini yuqori darajada tashkil etilishi raqobatchi korxonalarga nisbatan mavjud resurslardan yuqori darajada foydalanish imkonini

beradi, korxona innovatsion faoliyat orqali mahsulot sifatini oshishiga, assortimentni ko'paytirishga, iste'molchilar talabiga mos mahsulot ishlab chiqarishga erishadi.

Strategik dasturlar. Mamlakat tomonidan jahon bozorida rivojlanmagan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash yoki raqobatga bardosh bera olmayotgan korxonalarni davlat dasturlari yordamida rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu dasturlarning har biri alohida iqtisodiy darajada korxonalarning raqobatbardosh ustunliklarni yaratishga imkon beradi.

Korxonalarning raqobatbardoshligi bu biror mamlakatdagi tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarga nisbatan ustunligi hisoblanadi (Safronova, 2009). Raqobatbardoshlik korxona ish faoliyatini, barcha turdagi resurslar samaradorligini aks ettiradi. Korxonaning raqobatbardoshligi mutlaq o'lchovga ega emas, u korxona faoliyatining individual yoki bir necha parametrlari bilan belgilanishi mumkin.

Raqobatbardoshlikni oshirish uchun mahsulot sifatini va ishlab chiqarish quvvatini oshirish lozim. Ammo, bugungi kundagi beqaror iqtisodiy vaziyat va korxonalarda moliyaviy resurslarning taqchilligi, axborot xavfsizligi hamda kadrlar kasbiy mahoratining pastligi kabi omillar korxonalarning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda chuqur o'rganish orqali ularga ta'sir ko'rsatish yo'llarini topish raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligi omillarini vujudga kelish manbaiga ko'ra ichki va tashqi omillarga bo'lish mumkin (Porter, 2008).

Tashqi omillar quyidagilardir:

- ishlab chiqarish omillari, korxonaning raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi ilg'or texnologiyalar, investitsiya imkoniyatlari, kuchli tadqiqot bazasi, yuqori malakali kadrlar va boshqalar;

- raqobatchilar faoliyati;

- talab omili, talabning xususiyatlari, talabning hajmi va dinamikasi, iste'molchilarning mahsulot sifatiga bo'lgan talabi va boshqalar;

- mamlakat iqtisodiyotiga aloqador qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlarning mavjudligi;

- hukumatning harakati;

- tarmoqdagi korxonalarni xususiylashtirish darajasi;


- tasodifiy hodisalar.

Yuqoridagi barcha omillar sanoat korxonalarining raqobatbardoshlik darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish omillari, raqobatchilar faoliyati, iste'molchilar talabi va mamlakat iqtisodiyotiga aloqador qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar mavjudligi mamlakatda raqobat muhitini shakllantiradi. Raqobat muhitiga bozor munosabatlarini shakllantirishda xususiylashtirish darajasi kuchli ta'sir qiladi, chunki korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish ichki bozorda raqobat muhitini yaratadi.

Ichki omillar esa quyidagilardir: bozorning samaradorligi, ekologik samaradorlik, xarajatlar samaradorligi hamda boshqaruv samaradorligi (Porter, 2008). Bu omillar barcha tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi. Omillarning ichki tarkibidagi o'zgarishlar har qanday korxonaning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Bundan tashqari, ro'yxatga psixologik omillarni qo'shish mumkin.

Bozorning samaradorligi iste'molchilar talabini bir qator shartlar asosida maksimal darajada qondirish demakdir, bularga, iste'molchiga yaqinlik, raqobatchilar tahlili, ustunliklarni izlash va axborot ta'minotini kiritish mumkin. Korxonaning iste'molchiga yaqinligi sotishdan keyingi servis xizmat ko'rsatishning intensivligi va sotilish vaqtida shaxsiy aloqaning mavjudligini bildiradi. Korxona raqobatchilarining maqsadlari, strategiyalari va harakatlarini tahlil qilish, raqobatbardosh ustunlikning yangi manbalarini topish imkoniyatini beradi. Bugungi tez o'zgaruvchan davrda korxona faoliyati ishonchli va tezkor axborot tizimini talab qiladi.

Xarajatlar samaradorligi bu xarajatlarni optimallashtirilishini anglatadi, to'qimachilik korxonalarining xarajatlarini minimallashtirish orqali mahsulot narxini kamaytirish evaziga ushbu turdagi mahsulot bozorining katta ulushini egallash mumkin. Xarajatlarni minimallashtirishga erishish uchun korxona yaxshi tashkil qilingan ishlab chiqarish tizimiga, yaxshi ta'minot tizimiga, zamonaviy texnologiyaga va mahsulot taqsimlashning yaxshi tizimiga ega bo'lishi kerak.



1-rasm. Korxona raqobatbardoshligi omillarining umumiy tasnifi (Mansurov, 2009)

Qo'shimcha qilib aytish mumkinki, minimal xarajatlarga erishish uchun mahsulot tannarxi bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar chuqur tahlil qilinishi kerak bo'ladi. Korxonani barcha sohalarida iqtisod qilish rejimini yaxshi yo'lga qo'yish orqali mahsulot tannarxini mumkin bo'lgan minimal darajada ushlab turish mumkin. Mahsulot tannarxini kamaytirishning yana bir yo'li, bu ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni oshirish hisoblanadi. Bu ishni amalga oshirishda marketing xizmatini kuchaytirish talab etiladi.

Korxona raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish asosida quyidagi tasniflar shakllandi (Manzurov, 2009) (1-rasm):

1. Raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillarni tashkil topishiga ko'ra ichki, tashqi qisqa va tashqi uzoq muhit omillariga bo'lish mumkin. Ichki muhit omillariga korxonaning maqsadi, tuzilmasi, xodimlari, texnika-texnologiya kabi mexanizmlar kiradi. Tashqi qisqa muhit omillariga, mol yetkazib beruvchilar, iste'molchilar, xamkorlar va boshqalar, tashqi uzoq muhit omillariga davlat siyosati, jahon tendensiyalari, raqobatchilarning harakati va boshqalar ta'sir ko'rsatadi.


2. Nazorat qilish mumkinligi darajasi bo'yicha esa nazorat qilinadigan, shartli nazorat qilinadigan va nazorat qilish mumkin bo'lmagan omillarga bo'linadi. Nazorat qilinadigan omillar bu korxonaning ichki muhit omillari hisoblanib, ushbu omillarni korxona boshqaruv tizimi orqali tartibga solish mumkin. Shartli nazorat qilinadigan omillarga tashqi qisqa muhit omillari kiradi ya'ni mol yetkazib beruvchilar, iste'molchilar, xamkorlar va boshqalar. Nazorat qilish mumkin bo'lmagan omillarga esa davlat siyosati, jahon rivojlanish tendensiyalari va boshqalarni misol keltirish mumkin.

3. Harakat yo'nalishi bo'yicha shartli ijobiy va shartli salbiy yoki qisqa va uzoq muddatli salbiy, qisqa va uzoq muddatli ijobiy omillarga bo'lish mumkin.

4. Boshqaruv predmetiga bog'liqlik darajasi bo'yicha subyektiv va obyektiv omillarga ajratish mumkin.

5. Korxona raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni belgilari bo'yicha: moliyaviy va iqtisodiy omillar, boshqaruv va tashkiliy omillar, marketing omillari, ijtimoiy – siyosiy omillar, xodimlar boshqaruvi omillari, intellektual salohiyatni rivojlantirish omillari, infrastruktura salohiyatini rivojlantirish omillari, ekologik omillar, texnik va texnologik omillar, ijtimoiy – psixologik omillar, mahsulot sifati omillari.

To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimiga ta'sir etuvchi omillarni yuqorida aytib o'tilganidek, ikki guruhga ya'ni ichki va tashqi muhit omillariga bo'lib tadqiq etiladi (2-rasmga qarang).



2-rasm. To'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish tizimiga ta'sir etuvchi omillar

Manba: muallif ishlanmasi.

Korxonalar bilan bog'liq dastlabki nazariyalarda korxonalar raqobatbardoshligi faqat ichki muhit bilan bog'liq degan qarashlar ilgari surilgan, keyinroq aniq bo'ldiki, korxonalar raqobatbardoshligiga nafaqat ichki muhit omillari, balki tashqi muhit omillari ham kuchli ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi ichki omillar sifatida asosan, xom-ashyo, texnika-texnologiya, ishchi-xodimlar salohiyati, marketing xizmati, sifat menejmenti, boshqaruv tizimi kabilarni kiritish mumkin. Dastlab, xom-ashyo ya'ni to'qimachilik korxonalarida paxtaning sifati ta'sirini ko'rib chiqsak. Barchamizga ma'lumki, paxtadagi tolaning uzunligi uning sifat darajasini yuqoriligini anglatadi, shu bilan birga rangi, iflosligi, namligi kabi ko'rsatkichlar ham mahsulot sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Ichki omillar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq, ya'ni paxtaning sifatli bo'lishi bevosita ip-kalavaga ya'ni tolaning uzunligi ipdagi tuguncha(neps)lar sonini kamayishiga, bu esa ip-kalavaning sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xom-ashyo sifatli bo'lsa to'qimachilik dastgohida to'htalishlar kamayadi, to'qimachilik dastgohlarining zamonaviyligi, avtomatlashgan ko'rinishlari ham mahsulotning sifatini oshishiga, elektr energiya tejama, ish unumdorligini yuqori bo'lishiga, ishchi kuchi tejama, o'z vaqtida buyurtmachilarga tovarlarni yetkazib berishga imkon beradi.

Kadrlar salohiyati asosan, mahsulotning sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda olib borilgan tadqiqotlardan ayon bo'ldiki, kadrlar qo'nimsizligi ba'zi korxonalarda 70 %gacha kuzatilmoqda (Toshpulatov, 2018), bu esa kadrlar mehnat salohiyatini pasayishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Tajribasiz, malakasiz ishchilar mahsulotning sifat darajasini pasayishiga, dastgohlarning ishlash quvvatini tushishiga olib keladi.

Marketing xizmati asosan, ta'minotchilar va buyurtmachilar bilan ishlaydi, ya'ni paxta xom-ashyosini yetkazib berish va tayyor mahsulotni sotish bilan shug'ullanadi. Agar marketing bo'limi sotishni yoki ta'minotni o'z vaqtida amalga oshira olmasa, o'z-o'zidan samaradorlik pasayadi. Bu esa, raqobatda ortda qolishga, iste'molchilarni yo'qotib qo'yishga yoki bozordan siqib chiqarilishigacha olib kelinishi mumkin.

To'qimachilik korxonalarida sifat menejmentini to'g'ri tashkil etish bevosita raqobatbardoshlikka kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yurtimizdagi to'qimachilik korxonalarining aksariyat qismi mahsulotning sifatini nazorat qilish tizimiga kuchli e'tibor qaratmoqda. Bu esa nuqsonlarni kamayishiga, buyurtmachilar istagiga mos mahsulot ishlab chiqarish imkonini bermoqda.

Xulosa va takliflar.

To'qimachilik korxonalarining boshqaruv tizimi raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi eng asosiy me'zon hisoblanadi. Boshqaruv tizimini to'g'ri yuritish, xar bir lavozimdagi shaxslarni korxonaning samaradorligini oshirishga qaratilgan harakatlarini ishlab chiqish, ishchi-xodimlarni korxona uchun bor kuch-g'ayrati bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Har bir ichki omil to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bular yuqoridagi izohlarda ham aytib o'tildi. Xom-ashyo sifatli bo'lsada, kadrlar salohiyati past bo'lsa mahsulot sifati buzilishi mumkin, mahsulot sifatli bo'lsada, sotish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa aylanma mablag'lar bilan bog'liq muammolar kelib chiqadi, xullas, xar bir ichki omil bir-biriga kuchli bog'langan holda korxonaning raqobatbardoshligiga ta'sir etadi.

Tashqi omillar sifatida raqobatchilar soni, bozor talabi, davlat siyosati kabilarni kiritish mumkin. To'qimachilik korxonalari mamlakatimizda eng ko'p sonli bo'lganligi sababli, ushbu tarmoqda raqobat kuchli darajada rivojlanmoqda, korxonalar soni qanchalik kam bo'lsa, shunchalik raqobat kuchsiz va aksincha, ko'pligi kuchli raqobat muhitini yaratadi. Bozordagi iste'molchilar talabining ko'payishi yoki kamayishi, davlatning olib borayotgan siyosati ya'ni to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga e'tibori, soliqlar bo'yicha imtiyozlar, bojxona siyosatida eksport yoki import mahsulotlar bo'yicha imtiyozlar berish kabilarni korxonalar raqobatbardoshligiga kuchli ta'sir qiladi. Umuman olganda, tashqi omillar to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligiga turlicha ko'rinishlarda ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Literature/References:

- Ahmadjanovich, U. A. (2021). The Main Ways To Improve The Efficiency Of Investment Activity For The Development Of Socio-Economic Processes. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(2), 197-205.
- Gafurov, A., & Urinov, A. (2003). *Economic Reforms In Uzbekistan: Specific Features, Results And Problems. Eurasian Vision: Felicitation Volume on the 70th Birthday of Prof. Devendra Kaushik*, 187.
- Hoshimov, A. T. (2019). To'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligi: Innovatsion texnologiyalar va ularning bozorga ta'siri. *Texnik va texnologik iqtisodiyot*, 27(4), B.150-163.
- Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management*. 15th Edition. Pearson Education
- Li, X. (2007). Competitive Advantage in Textile Manufacturing: Managing Resources and Innovation. *Textile Management Journal*, 12(3), 45-60.
- Petri, T. (2015). Resource Management in Textile Enterprises. *International Journal of Textile and Apparel*, 21(1), 30-42.
- Smith, A., & Johnson, R. (2018). Environmental and Social Factors in the Textile Industry's Competitiveness. *Sustainability in Manufacturing*, 14(4), 215-228.
- Sultonov, I. M. (2018). To'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirishning iqtisodiy va marketing omillari. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 34(2), B.72-85.
- Toshpulatov I.A. (2018) Yengil sanoat korxonalarining ishchi-xodimlari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar // *Iqtisod va moliya*. №6, - 29 b.
- Wong, J. (2020). Innovations in Textile Manufacturing: Competitive Strategies. *Journal of Textile Innovation*, 28(3), 123-137.
- Мансуров Р.Е. (2009) Проблемы повышения экономической эффективности и конкурентоспособности интегрированных агропромышленных структур. – Казань: Изд-во КГЭУ, с. 32.
- Портер М. (2008) Международная конкуренция. / Пер. с англ. / Под ред. В.Д. Щетинина. - М.: Междунар. отношения, - 278 с.
- Сафронова Н.А. (2009) Экономика предприятия. - М.: «Юрист», - 346 с.
- Уринов, А. А. (2020). Стратегические направления инновационной политики. in минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари (pp. 113-119).